

JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI VA IQTISODIYOT

Otamurodova Gulchehra

*Toshkent shahri Yashnobod tumani olmos mahallasi 16 etajka 8- dom 11- etaj
53- xonadon*

Abstract: Jamoat Xavfsizligi Universiteti qanday o'quv maskani va u o'zi qachon tashkil topdi? Bu universitetga 1990-yil 15- oktyabrda asos solingan bo'lib, 1990-2017- yillarda *Toshkent oliy harbiy texnik bilim yurti*, 2017-2021-yillarda *Milliy gvardiya harbiy texnika instituti* va keyingi yillarda u universitet maqomini oldi. O'rta Osiyoda yagona bo'lgan universitet Vatanga ham harbiy xizmatchilarni, ham kuchli kadrlarni tayyorlab beradi. Aslida yagona deyilishining ham asl sababi shundadir. Universitetda aytganimdek, harbiy xizmatchilar bilan birgalikda Iqtisodiyot, Psixologiya, va Yuridik yo'nalishlarida ikki xil usulda (kechki va kunduzgi) ta'lim beriladi. Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig'i, o'zbek huquqshunosi, yuridik fanlar doktori va professor - Mirzayusuf Hakimovich Rustamboyev. Mirzayusuf Rustamboyev o'z talabalaridan faqat kuchli bilim olishlarini va kitoblarga katta qiziqishda bo'lishlarini talab qiladi. Bu universitetda kursantlar va talabalar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, universitetga kirishdayoq kuchli tartib-intizomni his etish mumkin. KPP xodimlari kirish joyida barcha aloqa vositalarini olib saqlab qo'yishadi va chiqishdagina beriladi. Ikki bosqichli tekshiruvdan so'ng universitet hovlisiga kirish tasdiqlanadi.

Kalit so'zlar: zamonaviy jihozlar, til kurslari, kursantlar.

O'quv binosining orqa tomonida katta klub bo'lib, bu yerda har xil namoyish, tadbir, zakovat, majlis, katta Konferensiyalar va uchrashuvlar bo'lib o'tadi. O'quv binolarida zamonaviy jihozlar joylashtirilgan bo'lib, har bir talabaning qulayliklari inobatga olingan. Masalan, har bir xonada yuqori sifatli ekran, kuzatuv kamerasi va stol stullar o'rin olgan. Bundan tashqari universitet tozaligiga har bir guruh mas'ul bo'lib, talabalar va kursantlar navbatchilik ishlarini olib boradilar. Universitetda bepul til kurslari ya'ni Xitoy, turk, va rus tili kurslari katta professorlar tomonidan o'tiladi va yana kutubxona mavjud bo'lib, kutubxonada badiiy kitoblar, o'quv qo'llanmalar va kompyuterlar bilan jihozlangan. Kerakli va zaruriy holatlarda universitet tomonidan o'quv planshetlari foydalanish uchun taqdim etiladi. Kutubxona bilan chegaralanmagan holda, Jamoat xavfsizligi universitetining o'z bosmaxonasi mavjud. Bundan she'r yozuvchilar, har xil turdagi maqolalar, to'plamlar va kitob yozuvchi talaba, kursantlar keng foydalana olishadi. Har bir sohada kuchli yondashuv bo'lganidek, sportda ham katta imkoniyatlar mavjud. Misol uchun olsak, tenisning ikki turi, voleybol, basketbol, kurash, dyuzdo, shaxmat, ot minish va bir qancha turlari mavjud bo'lib, har biri bilan alohida ish olib



boriladi. Shu kungacha sport sohasida universitetimizdan ko'plab Jahon chempionlari Prezidentimiz tomonlaridan munosib taqdirlandi.

Shunday imkoniyatlar mavjud bo'lgan universitetda faqatgina saralangan kuchli ilm sohiblari tahsil oladi va katta professor, akademiklar tomonidan ular saralanadi. Shu sababli bu yerda kelajaksiz kadr bo'lmaydi. Ular katta tashkilotlarda, vazirliklarda, Markaziy bankda va yuqori organ xodimlari bo'lishadi. Shubhasiz aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nazarlariga tushgan eng kuchli universitetlardan biri hisoblanadi.

Universitetning yana bir bo'g'ini bo'lgan Iqtisodiyot yo'nalishi haqida gapiradigan bo'lsam, bu maxsus yo'nalish bo'yicha talabalar kuchli tartibda saralanadi. Iqtisodiyot kafedra boshlig'i Urmonov Jahongir, professor Bozorov Akmal, dotsent Abdullayeva Mavluda, Azamjonov Ulug'bek va boshqa professorlar ta'lim uslubi juda qattiq va intizomli tarzda bo'ladi. Faqatgina bir yo'nalish bilan chegara saqlab qolmay ingliz tili phd ustozimiz Mengliyeva Sunbula biz bilan alohida tarzda o'quv jarayonlar olib boradilar.

Shaxsan men kechki " iqtisodiyot" yo'nalishi 1- kurs 103- guruh talabasiman. Tashqi tomondan qaraganda iqtisod faqat bankda ishlaydi degan hayol kechadi va unga muhim yo'nalish sifatida qaralmaydi.

Bir qarashda qonunlar raqamlardan ancha ustun ko'rinsada, shu sohaning tub-tubiga kirib borar ekanman, *iqtisodsiz har qanday davlat -o'lik*. Chunki iqtisodiyot mamlakatning yashirin kuchi va asosiy ishlab turuvchi hujayrasi hisoblanadi. Bozorda narxlarning ko'tarilib tushishi, soliq -subsidiyalar , banklarda qo'yiladigan omonatlar yashirin tarzda ko'payib borishi, jahon bozoridagi iqtisodiy faoliyatlar, Markaziy bank ishi va milliy valyutamiz haqidagi barcha haqiqatlar yuzasidan katta iqtisodchilar ish olib boradilar. Gaplarimning tasdiqi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025- yil 26- dekabrda murojatnomalarida ham iqtisodiyot yo'nalishiga katta e'tibor qaratdilar va bir nechta yo'nalishlar qat'iy belgilab berdilar. Bundan tashqari mamlakatimizning har bir strategiyasida *iqtisodiyotni liberallashtirish* yo'nalishlari belgilab qo'yilgan. Shunday kuchli sohada Jamoat xavfsizligi universitetida o'qiyotganimdan va professorlar qo'lida tahsil olayotganimdan faxrlanaman.

Otamurodova Gulchehra Muzaffarovna. Navoiy viloyati Qiziltepa tumani Bo'ston mahallasida 2007- yil 18- fevralda oddiy oilada tavallud topdi. U 3-sinfidan boshlab tasviriy san'atga qiziga boshladi va Respublikada va xalqaro tanlovlarda 1- va 2- faxrli o'rinnlarni qo'lga kiritdi. 2024- yil Turkiyada va Almanaxdagi to'plamlarda maqolalari chop etildi. Qiziltepa tongi gazetalarida hikoyalari bosib chiqarildi. Va 2025- yil Zulfiyaxonim tanlovida viloyat bosqichida faol ishtiroki uchun taqdirlandi. Hozirgi kunda O'zbekiaton Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti "iqtisodiyot" kechki ta'lim yo'nalishi 1- kurs talabasi.

